

Kredit mahsuloti:

BIZNESGA HAMKOR

Kredit summasi	3 000 000 000,00 soʻmgacha			
Kredit ajratilayotgan davrda asosiy depozit hisobvaragʻi yoki ikkilamchi depozit hisobvaragʻi kredit ajratayotgan bank xizmatlari ofisida mavjud boʻlgan mijozlarga (yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga)				
Kredit maqsadi	Kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlariga biznesni rivojlantirishga barcha maqsadlar uchun. (Qonunchilikda taqiqlanmagan maqsadlar uchun)			
Kredit turi	Pul oʻtkazish va/yoki naqd pul koʻrinishida			
Tadbirkorning faoliyat turi	Barcha tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi kichik biznes va xoʻjalik yurituvchi subyektlarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga biznesni rivojlantirish uchun			
Kredit valyutasi	Milliy valyutada			
Milliy valyutada ajratiladigan kreditlar boʻyicha foiz stavkasi	Kredit muddati	Imtiyozli davr	Asosiy depozit hisobvaragʻi kredit ajratayotgan bank xizmatlari ofisida mavjud mijozlarga	Ikkilamchi depozit hisobvaragʻi kredit ajratayotgan bank xizmatlari ofisida mavjud boʻlgan mijozlarga
	12 oy	1 oy	20 %	21 %
	24 oy	1 oy	21 %	22 %
	36 oy	2 oy	22 %	23 %
Loyiha taʼminoti	Koʻchmas mulk va avtotransport vositalari garovi bilan taʼminlanishi lozim. Garovga qabul qilinayotgan koʻchmas mulklarning garov qiymati olinayotgan kredit summasining 125 foizidan kam boʻlmasligi lozim; noturar joy va/yoki turar joy boʻlishi lozim (turar joyda hech kim roʻyxatda boʻlmagan taqdirda);			
Qoʻshimcha taʼminot	Qoʻshimcha taʼminot sifatida yuridik va jismoniy shaxslarning uchunchi shaxs kafilligi va boshqa taʼminotlar qabul qilinishi mumkin. Uchunchi shaxs kafilligiga boʻlgan talablar: - kafilning soʻndirilmagan muddati oʻtgan qarzdorliklari mavjud boʻlmagan boʻlishi lozim; - faoliyati zarar koʻrib ishlamayotgan boʻlishi lozim; - doimiy daromad manbaiga ega boʻlishi lozim; - Yakka tartibdagi tadbirkor oʻzining olinayotgan kreditiga jismoniy shaxs sifatida kafilligi qabul qilinmaydi.			
Tadbirkorlik subyektiga (qarz oluvchiga) boʻlgan talablar				
Asosiy hisob raqamiga boʻlgan talab	Kredit ajratilayotgan davrda asosiy depozit hisobvaragʻi yoki ikkilamchi hisob raqami kredit ajratayotgan bank xizmatlari ofisida mavjud boʻlishi lozim.			
Hisob raqam holatiga boʻlgan talab	2-sonli kartotekada qarzdorlik mavjud boʻlmasligi lozim.			
Buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalari	Moliyaviy-xoʻjalik faoliyati natijalari boʻyicha zararsiz ishlayotgan va nolikvidli balansga yoʻl qoʻymagan boʻlishi lozim (yuridik shaxslar uchun) (Bunda soʻngi moliyaviy yil va soʻngi chorak uchun buxgalteriya balansi hisoboti inobatga olinadi) Yangidan tashkil qilingan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kredit ajratishga ruxsat beriladi.			
Xoʻjalik yurituvchi subyektlar majburiyatlariga boʻlgan talab	Ijobiy kredit tarixiga ega boʻlgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxslar (kredit tarixiga ega boʻlmagan qarz oluvchilar ijobiy kredit tarixiga ega deb tasniflanadi)			
Kredit tarixiga boʻlgan talab	Qarz oluvchida soʻndirilmagan muddati oʻtgan qarzdorliklari mavjud boʻlmagan va oxirgi 12 oyda 90 kundan ortiq muddati oʻtgan qarzdorliklarga yoʻl qoʻymagan boʻlishi lozim			

*Ushbu kredit mahsuloti doirasida ajratiladigan umumiy kreditlar qoldig'i 3 000 000 000,0 so'mdan oshmasligi lozim.

** "Trastbank" XAB vakolati "Guliston", "Xorazm", "Urganch", "Nukus", "To'rtko'l", "Xiva" va "Navoiy" BXMIlari yuqoridagi mahsulot doirasida 2 000 000 000,0 (ikki milliard) so'mdan oshmasligi lozim.